





YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar–sentyabrida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 63 598,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentyabri bilan taqqoslaganda 1,6 % ga kamaydi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentyabridagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 15,6 % ga yetdi.



Yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- sentyabriga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- sentyabr	2020- yil yanvar- sentyabr	
	I. YaHM	58 194,4	63 598,5	98,4
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	51 536,8	56 872,9	98,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6 657,6	6 725,6	98,1
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	51 536,8	56 872,9	98,4
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25 327,1	26 772,8	97,0
	sanoat	20 132,5	21 008,2	96,0
	qurilish	5 194,6	5 764,6	100,7
	Xizmatlar	26 209,7	30 100,1	99,8

		Mlrd. so‘m		2019- yil yanvar- sentyabr nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- sentyabr	2020- yil yanvar- sentyabr	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8 247,7	9 712,9	100,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 607,4	7 255,7	102,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	11 354,6	13 131,5	97,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 24 338,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga kamaygan.



Yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o‘shish sur‘atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10,6 % ini tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining ulushi 36,9 % dan iborat bo'lib, 2,2 % ga kamaydi, qurilish tarmog'ining ulushi esa o'zgarmadi va 10,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 53,0 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 2,2 % punktga o'sdi.




Yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,6	89,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	11,4	10,6
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	49,2	47,0
	sanoat	39,1	36,9
	qurilish	10,1	10,1
	Xizmatlar	50,8	53,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,0	17,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	12,8	12,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,0	23,1




Yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




O'sish sur'ati qurilishda – 100,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 10,1%)ni tashkil etdi. Shuningdek, 2019- yilning yanvar-sentyabr oylari bilan taqqoslaganda sanoat tarmog'i (96,0 %) va xizmatlar sohasida (99,8 %) ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmining solishtirma narxlarda kamayishi kuzatildi. Mazkur tarmoqlarning YaHM tarkibidagi ulushi mos ravishda 36,9 % va 53,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,5 % (17,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 102,6 % (12,8 %)dan iborat bo'ldi. Shuningdek, boshqa xizmat tarmoqlarida esa kamayish

kuzatildi va 97,6 % ni tashkil etdi (mazkur tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi - 23,1 %).




Yanvar-sentyabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-sentyabrda iqtisodiyotning qurilish tarmog'i YaHMning o'sishiga 0,1 % f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasi mos ravishda - 1,4 f.p. va - 0,1 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHM - 0,2 f.p. ga kamaydi.



2020- yil yanvar-sentyabr oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissasi



2020- yil yanvar-sentyabrda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentyabridagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 115,1 % va qurilishda – 110,2 % qayd etildi.



Yanvar-sentyabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

